



**TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

LABOUR ECONOMICS AND  
**HUMAN CAPITAL 2024** CAPITAL  
TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF ECONOMICS

# **MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI**

ilmiy elektron jurnali

## **LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

LABOUR      LABOR ECONOMICS      LIFE EXPECTANCY

LIFE EXPECTANCY

**2024 yil 4-son**

HUMAN CAPITAL

Volume 10, Issue 4, 2024

QUALITY OF EDUCATION

HUMAN CAPITAL INDEX      QUALITY



МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ  
ВА ИНСОН КАПИТАЛИ  
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ  
№ 4-2024

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ  
КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro’yxatga olingan.

**Muassis:** “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

**Tahririyat manzili:**

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko’chasi,  
49 uy

**Elektron manzil:** [ilmymaktab@gmail.com](mailto:ilmymaktab@gmail.com)

**Jurnal web-sayti:** [www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)

**Bog’lanish uchun telefonlar:**

+998998818698

**Tahririyat Kengashi raisi:****(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

**Tahririyat Kengashi a'zolari:****(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.

Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d.. prof.

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof

Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof

Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.

Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.

Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d., prof.

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.

Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d.. prof.

Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.

Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)

Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.

Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.

G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.

Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

**Jamoatchilik Kengashi a'zolari:****(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)

Jon Ankor (Buyuk Britaniya)

Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)

Xeynz Miller (AQSh)

Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)

Masato Xivatari (Yaponiya)

Gerxard Feldmayer (Germaniya)

Eko Shri Margianti (Indoneziya)

Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)

Rohana Ngah (Malayziya)

Sharifah Zanniyerah (Malayziya)

Teguh Dartanto (Indoneziya)

Nur Azlinna (Saudiya Arabiston)

Muhammed Xoliq (Pokiston)

Alisher Dedaxonov (Toshkent)

**Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief):** G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

**Veb-administrator (Web admin):** Musayev Xurshid Sharifjonovich



+99899 881-86-98



ilmiymaktab@gmail.com



Tashkent, Uzbekistan



[www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)

**MUNDARIJA (CONTENTS)****MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

|                          |   |       |
|--------------------------|---|-------|
| <b>S.B.G'oyipnazarov</b> | <i>Change of professions and skills in the field of tourism under the influence of artificial intelligence.....</i>   | 6-19  |
| <b>I.A.Bakiyeva</b>      |   |       |
| <b>S.M.Kurbanbayeva</b>  |   |       |
| <b>S.S.Amirdjanova</b>   | <i>Prioryetetnye napravleniya zanyosti naseleniya i organizatsionno-ekonomicheskie mehanizmy ego realizatsii.....</i> | 20-33 |

**INSON KAPITALI**

|                        |  |       |
|------------------------|--|-------|
| <b>A.B.Irmatova</b>    | <i>Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirishda o'qitish tizimi .....</i>                               | 34-50 |
| <b>A.M.Saidahmadov</b> |  |       |
| <b>F.O.Odilova</b>     | <i>Kasb-xunaqtayt tashkilotlari qurilishi kashfiy kunnikmalari oshiriishga ta'sisir koursatuvchi omillar .....</i> | 51-60 |
| <b>T.N.Azimov</b>      | <i>Rol' vyschego obrazovaniya v obespechenii ustoychivogo rosta chelovecheskogo kapitala .....</i>                 | 61-78 |
| <b>T.B.Shomurodov</b>  | <i>Oziq ovqat xavfsizligini ta'minlashning inson kapitalini rivojlanishiga ta'sirini baholash .....</i>            | 79-86 |

**INSON TARAQQIYOTI**

|                            |  |         |
|----------------------------|--|---------|
| <b>Sh.D.Akishova</b>       | <i>O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali moliyaviy salohiyatni oshirishning zamonaviy holati.....</i>                     | 87-93   |
| <b>X.X.Yaxshimuratova</b>  | <i>Mamlakat aholisining turmush farovonligini oshirishda iste'mol kreditlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan obyektiv zarurligi.....</i>       | 94-100  |
| <b>Z.K.Murtozayeva</b>     | <i>The role of public procurement in the project financing system formed on the basis of public opinion in the Republic of Uzbekistan.....</i> | 101-109 |
| <b>Ch.O'.Ro'zimurodova</b> | <i>Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish: zamonaviy tendensiyalar va asosiy o'zgarishlar.....</i>  | 110-120 |
| <b>T.B.Shomurodov</b>      | <i>O'zbekistonda aholi daromadlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini baholashning metodologiyasini takomillashtirish.....</i>             | 121-130 |

**KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH**

|                    |   |         |
|--------------------|---|---------|
| <b>O.A.Norboev</b> | <i>Mulkiy munosabatlar mechanizmini takomillashtiriш.....</i> | 131-141 |
|--------------------|---|---------|

**T.B.Shomurodov**

*Daromad tengsizligining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri: rivojlanayotgan mamlakatlar misolida.....* 142-150

**Z.T.Jumanova**

**MIGRATSIYA**  
*Turizm sohasi faoliyatini statistik tahlil qilish.....* 151-161

**M.F.Abdumannofova**

**INSON RESURSLARINI BOSHQARISH**  
*Inson resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning tendensiyalari .....* 162-171

**G.R.Kuziyeva**

*Kichik biznes va xususiy tadbirdorlikda ishchi kuchi samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning ta'sirini baholash .....* 172-180

**G.R.Kuziyeva**

*Ishlab chiqarishda innovatsiyalarning joriy etilishining ishchi kuchi samaradorligiga ta'sirini baholash .....* 181-188

**S.K.Mansurov**

**TADBIRLIKNI RIVOJLANTIRISH**  
*Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tovarlar eksportining o'rni va ahamiyati .....* 189-203

**S.U.Ismailova**

*Роль цифровых маркетинговых стратегий в обеспечении устойчивого экономического роста в цифровой экономике .....* 204-213

**Sh.Sh.Ataganova**

*Turistik destinatsiya raqobatbardoshligini oshirish orqali mintaqada turizmni barqaror rivojlantirish .....* 214-221

**D.B.Fayziyeva**

*Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarining samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish .....* 222-232

**Sh.U.Karimova**

*Mintaqada turizmni rivojlantirishda turistik resurslardan unumli foydalanish .....* 233-238

**G.R.Kuziyeva**

*O'zbekistonda innovatsiyalarning yapli ichki mahsulotni diversifikatsiyalashdagi rolini baholash...* 239-247

**Sh.S.Sayfutdinov**

*Hududiy turizm bozorini barqaror rivojlanishining nazariy asoslari .....* 248-254

**D.T.Alijonova****B.A.Xonturayev**

### **GENDER TENGLIGI**

*Ta'lim institutlarini jamiyatga ta'sirini gender indekslari asosida baholash .....* 255-270

**MUNOSIB MEHNAT**

**S.B.G'oyipnazarov**

*Barriers to the adoption of Industry 4.0 technologies in the practice of occupational safety and health of smes...* 271-281



**МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ  
ВА ИСОН КАПИТАЛИ**  
**ISSN: 3030-3117**  
<https://laboreconomics.uz/>



**MAMLAKAT AHOLISINING TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISHDA  
ISTE'MOL KREDITLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY JIHATDAN OBYEKТИV  
ZARURLIGI**

**Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a126](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a126)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bank faoliyati uchun iste'mol kreditlarining ahamiyati, faoliyat turining rivojlanish holati, iste'mol kreditlarining mamlakat aholisining turmush farovonligini oshirishdagi o'rni, ya'ni iste'mol krediti tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilinib, aholi ehtiyojlari va ularni joriy pul daromadlari bilan qondirish imkoniyati o'rtasidagi ziddiyatlar ko'rsatilgan. Maqola muallifning iste'mol kreditini yanada rivojlantrish bo'yicha taklif va tavsiyalari bilan yakunlanadi.

**Kalit so'zlar:** iste'mol krediti, mikroqarz, mikrokredit, overdraft krediti, kredit tarixi, to'lov qobiliyati, kredit portfeli, moliyaviy iste'mol, tovarlar uchun iste'mol krediti, ta'lim krediti, ehtiyoj, farovonlik.

**ОБЪЕКТИВНАЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ  
ПОТРЕБИТЕЛЬСКИХ КРЕДИТОВ В ПОВЫШЕНИИ БЛАГОСОСТОЯНИЯ  
НАСЕЛЕНИЯ СТРАНЫ**

**Яхшимуратова Хасият Худайбергеновна**  
ТГЭУ, ассистент

**Аннотация.** В данной статье анализируется значение потребительского кредитования для банковской деятельности, состояние развития вида деятельности, роль потребительского кредитования в повышении благосостояния населения страны, т.е. вопросы совершенствования системы потребительского кредитования. Обозначены противоречия между потребностями населения и их текущими денежными доходами. Завершается статья авторскими предложениями и рекомендациями по дальнейшему развитию потребительского кредита.

**Ключевые слова:** потребительский кредит, микрозайм, микрокредит, овердрафт, кредитная история, платежеспособность, кредитный портфель, финансовое потребление, потребительский кредит на товар, образовательный кредит, нужда, благосостояние.

**THE OBJECTIVE SOCIO-ECONOMIC NEED FOR CONSUMER CREDITS TO  
IMPROVE THE WELL-BEING OF THE COUNTRY'S POPULATION**

**Yakhshimuratova Khasiyat Khudaybergenovna**  
TSUE, assistant

**Abstract.** This article analyzes the importance of consumer loans for banking activity, the state of development of the type of activity, the role of consumer loans in improving the well-being of the country's population, i.e., the issues of improving the consumer credit system, the needs of the population and their current monetary income. Conflicts between the possibility of satisfaction are indicated. The article ends with the author's suggestions and recommendations for the further development of consumer credit.

**Keywords:** consumer loan, microloan, microcredit, overdraft loan, credit history, solvency, loan portfolio, financial consumption, consumer loan for goods, education loan, need, welfare.

## **Kirish**

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish asosida aholi turmush darajasi va farovonligini yuksaltirish, o'sib borayotgan iste'mol talablarini qondirish, moliya institutlari imkoniyatlaridan samarali foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Moliyaviy institatlardan biri bo'lgan bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish zamонавиy davr talablaridandir. Bank xizmatlarining keng talab qilinadigan segmentlarining ixtisoslashtirilgan bank xizmatlariga nisbatan ma'lum afzalliklariga qaramay, universal banklarning ixtisoslashtirilgan xizmatlar doirasini kengaytirishga urinishlari kuchaytirish natijasida, tijorat banklarning resurs bazasini mustahkamlash ularning aktivlari va kreditlari hajmini oshirish imkonini beradi.

Hozirda mamlakatimizda iqtisodiy vaziyatning nisbiy barqarorligi, aholi farovonligining oshib borishi, bank faoliyatining jismoniy shaxslarni kreditlash sohasidagi faollashuvi tufayli iste'mol kreditlashning jadal rivojlanishi aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini o'rGANISHNING ob'ektiv zaruratini belgilaydi. Bunda iste'mol kreditining iqtisodiy ahamiyati va uni yanada rivojlantirishda banklarning roli muxim ahamiyat kasb etadi.

## **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Iqtisodchilar tomonidan iste'mol krediti amaliyoti chuqur va har tomonlama o'rGANILGAN. Bu borada keng qamrovli tadqiqotlar olib borilib, tegishli ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan. Mashhur amerikalik olim-iqtisodchi Blanchardning fikricha, iste'molni moliyalashtirish jarayoni davlat tomonidan moddiy rag'batlantirish orqali rag'batlantirilishi kerak. Olimning yuqoridagi fikrlaridan ko'rinish turibdiki, iste'molni rag'batlantirishda tijorat banklarning krediti va davlatning moliyaviy yordami muhim o'rIN tutadi. Lavrushinning so'zlariga ko'ra, banklarning iste'mol kreditlarini berish amaliyotini takomillashtirish uchun quyidagi muammolarni hal qilish zarur:

- ✓ bo'lajak qarz oluvchilarning kredit tarixi haqida ishonchli ma'lumotlarning yo'qligi;
- ✓ iste'mol krediti oluvchilarning kreditga layoqatlilagini baholash tizimlari takomillashtirilmagan;

✓ iste'mol kreditlarining yetarli darajada ta'minlanmaganligi.

Xorijiy olimlardan A.I.Polishuk va S.A.Bistrovlarning fikricha bank biznesi sohasida iste'mol krediti - bu aholining iste'mol ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq mahsulot bo'lib, uning qaytarilish manbai aholi daromadlari bo'lib, asosiy resurslar banklarda jamlangan banklarda aholi omonatlarini taqdim etishdan ko'zlangan maqsad esa foyda olish hisoblanadi. Shu bilan birga, qonunchilikda mustahkamlanishi lozim bo'lgan iste'mol kreditining aniq modeli qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish mexanizmida nafaqat kredit, balki moliya tizimining ham ishtirokini nazarda tutadi. Tegishli reglamentlarning yo'qligi aholi daromadlarini pul-moliya bozoridagi qaltis spekulyatsiyalarga jalb qilish, moliyaviy piramidalarda ishtirok etish imkonini beradi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yo'qligi uy-joy ipoteka kreditining mavjudligini xavf ostiga qo'yadi.

Mahalliy olimalardan, SH.Z.Abdullaeva darsligida ham iste'mol kreditining turlari va axamiyati bo'yicha "iste'mol krediti jismoniy shaxsga (iste'molchiga) uning iste'mol ehtiyojlarini qondirish maqsadida tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib olish uchun beriladigan kreditdir" degan ta'rif berilgan.

Mamlakatimizda iste'mol krediti bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 2006 yil may oyida kuchga kirgan "Iste'mol krediti to'g'risida"<sup>19</sup>gi qonuni<sup>19</sup> bilan tartibga solingan bo'lib, unda iste'mol krediti jismoniy shaxslarga (iste'molchilarga) o'z ehtiyojlari uchun beriladigan kredit sifatida belgilangan.

Iste'mol krediti - iste'mol ehtiyojlarini qondirish uchun qaytarishlik sharti bilan aholiga beriladigan pul mablag'lari yoki tovarlardan iborat kredit. Odatda, aholining qimmatbaho tovarlarni xarid etishi uchun ajratiladi. Uzoq foydalananadigan tovarlar (avtomashina, uy, dala-hovli, yaxta va hokazo) borki, ularni xarid etish uchun joriy daromadlar yetishmay qoladi, ularni narxi yuqori bo'lganidan nasiyaga olish zarurati paydo bo'ladi.

Iste'mol krediti 2 xil shaklda, ya'ni moliyaviy iste'mol krediti va tovar iste'mol krediti shakllarida beriladi. Moliyaviy iste'mol krediti sotib olingan tovarlar (xizmatlar) haqini to'lash uchun pul mablag'lari tarzida iste'molchiga beriladigan kreditdir. Tovar iste'mol krediti sotib olingan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar haqini bo'lib-bo'lib to'lash tarzida iste'molchiga beriladigan kreditdir. Iste'mol tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi korxonalar yoki realizatsiya qiluvchi tashkilotlar tovar iste'mol krediti beruvchi tashkilotlardir.

---

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasining qonuni "Iste'mol krediti to'g'risida" Qonunchilik palatasini tomonidan 2005-yil 22-dekabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2006-yil 24-fevralda ma'qullangan

## **Tadqiqot metodologiyasi**


Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy tadqiqotlar o’rganilib, keng mushohada qilingan. Tadqiqotda qo’yilgan maqsadga erishish uchun aniq yo’nalish tanlab olingan. Sohaga doir statistik ma’lumot manbalarini o’rganish va tahlil qilish asosida tadqiqot strategiyasi belgilab olingan.

## **Tahlil va natijalar**

Respublikamizda aholi daromadlari darajasining o’sishi, tijorat banklarining resurs bazasining mustahkamlanishi va kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining kamayishi tijorat banklari tomonidan aholini iste'mol kreditlashning ko'payishi bilan bog'liq. Iste'mol kreditini berish bank tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotuvchining hisob-raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Iste'mol kreditini naqd pul ko'rinishida berishga yo'l qo'yilmaydi. Banklar va nobank kredit tashkilotlari, shuningdek mikromoliya tashkiloti faoliyatini amalga oshiruvchi to'lov tashkilotlari moliyaviy iste'mol krediti beruvchi tashkilotlardir.

So'ngi yillarda mamlakatimiz aholisining kredit mahsulotlariga bo'lgan talabi oshib bormoqda. Statistik tahlillardan ko'rishimiz mumkinki, joriy yilda O'zbekistonda yanvar-sentyabr oylarida aholiga milliy valyutada ajratilgan kreditlar miqdori, o'tgan yilning shu davriga ko'ra biroz kamaygan, ya'ni 73141.3 mlrd. so'mni tashkil etmoqda. 2023-yilda esa bu miqdor 75081.8 mlrd.so'mni tashkil etgan (1-rasm).




**1-rasm. 2023-2024 yillarda O'zbekistonda yanvar-sentyabr oylarida aholiga milliy valyutada ajratilgan kreditlar miqdori (mlrd.so'm)<sup>20</sup>**

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi statistik bulleteni.2024 yil sentyabr

Ayni paytda O'zbekistonda aholiga iste'mol kreditlari berish tartibini joriy etayotgan kredit tashkilotlari soni kundan-kunga ortib bormoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslar uchun mo'ljallangan kredit mahsulotlari turlari, jumladan, iste'mol kredit turlarining ko'payganini ko'rishimiz mumkin.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatib turibdiki, 2023-yil 2024-yilga nisbatan aholiga ajratilgan iste'mol kreditlari 32542,7 mlrd.so'mdan 13505,7 mlrd.so'mga kamayganini ko'rishimiz mumkin.Bu ko'rsatkichni foizlarda ko'radigan bo'lsak, 58,5 %ga iste'mol kreditlarini kamayganini ko'rishimiz mumkin. Mikroqarzlar esa 53,2 foizga, mikrokreditlar 64,7, overdraft krediti esa 77 %ga oshganini ko'rishimiz mumkin (2-rasm).



**2-rasm. 2023-2024 yillarda O'zbekistonda yanvar-sentyabr oylarida aholiga milliy valyutada ajratilgan kreditlar miqdori(mlrd.so'm)<sup>21</sup>**

Iste'mol kreditlari maqsadli ajratilgani uchun bu kreditga bo'lgan talab kamaygan.Sababi, iste'mol kreditlari iste'mol krediti berish qoidalariga muvofiq iste'mol krediti shartnomasi bo'yicha to'lovililik, muddatlilik va ta'minlanganlik shartlari bilan beriladi. Iste'mol krediti hajmi, uning muddati, foiz stavkasi, iste'molchining to'lovlarni amalga oshirish grafigi bank tomonidan belgilanadi va iste'mol krediti shartnomasida aks ettiriladi.Iste'mol krediti o'rnini bosuvchi mikroqarzlar, mikrokreditlar va overdraft kreditlari esa xal xil maqsadlar uchun berilishi va 2024-yil 1-yanvardan boshlab mikroqarzlar miqdorining 50 mln.so'mdan 100 mln.so'mgacha oshishi bu ko'rsatkichlarning yuqoriligidagi sabab bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi statistik bulliteni.2024 yil sentyabr

Iste'mol kreditini rivojlantirish muammolaridan biri bo'lgan iste'mol krediti shartlarini qarzdor buzgan taqdirda garovga qo'yilgan mol-mulkka bo'lgan huquqlarni kreditorga o'tkazish mexanizmi hali to'liq ishlab chiqilmagan. Iste'mol kreditlari, yuqorida aytib o'tilganidek, bir nechta kredit ob'ektlarini sotib olish uchun beriladi. Shu sababli, iste'mol kreditining tuzilishi va dinamikasidagi o'zgarishlarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Bank tomonidan jismoniy shaxslarga taqdim etilayotgan bank mahsulotlari va xizmatlarining keng assortimenti orasida iste'mol kreditlari chakana biznesning eng ko'p talab qilinadigan sohasidir. Bu segment aholining pul daromadlari va turmush tarzining oshishi bilan bevosita bog'liq. Jismoniy shaxslar iste'mol kreditidan banking istalgan filialida uy-joy ta'mirlash, mebel, avtomobil, maishiy texnika xarid qilish, davolanish, bayram xarajatlarini to'lash va boshqa ko'plab maqsadlarda foydalanishlari mumkin.

### **Xulosa va takliflar**

Iste'mol kreditini taqdim etishda banklar tovarlar yoki xizmatlarni sotuvchilarni tanlashga chekllovlar qo'ymaydilar, qarz oluvchilar tovar yoki xizmatlarni kimdan sotib olishni mustaqil ravishda hal qilishlari mumkin. Biroq, ba'zi banklar o'z hamkorlaridan ma'lum tovarlar yoki xizmatlarni sotib olish sharti bilan iste'mol kreditlari uchun qulay shartlarni taklif qiladi. Bundan tashqari, banklar ko'pincha savdo kompaniyalari bilan birqalikda muddatli to'lov dasturlarini ishlab chiqadi va ular bo'yicha ham juda jozibali shartlarni ham taklif etadi.

O'zbekistonda yaqin vaqtgacha iste'mol kreditlari faqat mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni xarid qilish uchun berilar edi. 2023-yil 10-aprelda “Iste'mol krediti to'g'risida”gi qonunga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, mazkur talab bekor qilindi. Shu sababli, bugungi kunda kreditdan foydalanib, import tovarlarni ham sotib olish mumkin.

Iste'mol kreditining naqd yoki naqdsiz pul shaklida beriladigan mikroqarz bilan solishtirgandagi asosiy afzalligi bu nisbatan past foiz stavkasidir. Darhaqiqat, odamlar turli tovarlarni sotib olishlari kerak bo'lganda mikroqarzlarga ham murojaat qilishadi. Shunda agar kreditning maqsadi aniq bo'lsa va tanlov iste'mol krediti va mikroqarz o'rtasida bo'lsa, birinchisini tanlash maqsadga muvofiqdir – ortiqcha to'lovlar kamroq bo'ladi.

Tovar iste'mol kreditining asosiy afzalligi esa bu mahsulot yoki xizmatning belgilangan qiymatini teng qismlarda bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatidir.

Shunday qilib, katta xaridni amalga oshirish kerak bo'lganda, ammo jamg'armalar yetarli bo'limganda, iste'mol krediti muammoning mantiqiy yechimi bo'lishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. “O’zbekiston-2030” strategiyasi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-soni.
2. 2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-soni, 26-maqсад.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari. 2022 yil.
4. O’zbekiston Respublikasining qonuni “Iste’mol krediti to’g’risida” Qonunchilik palatasi tomonidan 2005-yil 22-dekabrda qabul qilingan. Senat tomonidan 2006-yil 24-fevralda ma’qullangan.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini kichik va o’rta biznesga keng jalb qilishning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori. 15.11.2023 yil.
6. Bank ishi. Sh.Z.Abdullaeva. Toshkent-IQTISOD-MOLIYA 2017.446-bet.
7. Bank ishi. T.Karaliev va boshqalar. Toshkent -2016
8. I.R.Toymuxammedov. Bank ishi. Toshkent-2020.
9. O’zbekiston Respublikasi statistik bulliteni. 2024 yil sentyabr.
10. Blanchard O. Macroeconomics. Per. from Engl. - M Higher School of Economics, 2010. - C. 92-101.
11. Полищук, А. И., & Быстров, С. А. (2009). Точная модель потребительского кредита. Финансы и кредит, (5 (341)), 22-32.
12. Lavrushin O.I. Bankoe delo. - MOSCOW: KNORUS, 2008. - C. 474.
13. <http://www.gov.uz> – O’zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
14. <http://www.lex.uz> – O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
15. <http://www.cbu.uz> – O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki
16. <http://www.webofscience.com> – Xalqaro ilmiy maqolalar platformalari

CAPITAL INDEX QUALITY OF EDUCATION EXPECTED DURATION  
EDUCATION EXPECTED DURATION OF EDUCATION LIFE EXPECTANCY  
ION OF EDUCATION LIFE EXPECTANCY HEALTH STATUS HUMAN C  
TAN DEMOGRAPHY ATUS HUMAN CAPITAL HUMAN CAPITAL IN  
HUMAN CAPITAL HUMAN CAPITAL INDEX QUALITY OF EDUC  
CAPITAL INDEX QUALITY OF EDUCATION EXPECTED DURATION  
EDUCATION EXPECTED DURATION OF EDUCATION LIFE EXPECTANC  
ION OF EDUCATION LIFE EXPECTANCY HEALTH STATUS HUMAN C  
TANCY HEALTH STATUS HUMAN CAPITAL HUMAN CAPITAL IND  
DEX 2024  
NANCY  
LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL  
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS  
HUMAN CAPITAL

# Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13



Tashkent, Uzbekistan



ilmiy maktab@gmail.com



[www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)